

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TO'QIMACHILIK ISHLAB CHIQUARISHINI TASHKIL ETISH TIZIMI HOLATINING TAHLILI

Yusupova Nafisa Vaxidovna

"ALFRAGANUS UNIVERSITY" NOTT,

Menejment va marketing kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) doirasida to'qimachilik ishlab chiqarish tizimining hozirgi holatini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi — erkin iqtisodiy zonalar orqali to'qimachilik sanoatining kengayishi, investitsiyalar jalb etilishi, eksport salohiyati hamda ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish samaradorligini aniqlashdir. O'zbekiston EIZlarida to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishda klaster yondashuvi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash tamoyili, odatda, paxta yetishtirishdan tortib to tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq zanjirni bitta tizimga birlashtirishni nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: erkin iqtisodiy zonalar, to'qimachilik ishlab chiqarish, investitsiyalar, eksport, ishlab chiqarish klasteri, O'zbekiston.

АНАЛИЗ СОСТОЯНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТЕКСТИЛЬНОГО ПРОИЗВОДСТВА В СВОБОДНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

АННОТАЦИЯ

В данной статье систематически анализируется текущее состояние системы текстильного производства в свободных экономических зонах (СЭЗ) Республики Узбекистан. Цель исследования – определить перспективы развития текстильной промышленности в свободных экономических зонах, привлечение инвестиций, экспортный потенциал, а также эффективность производства и создание добавленной стоимости. Кластерный подход приобретает стратегическое значение в организации текстильного производства в СЭЗ Узбекистана. Принцип кластеризации обычно предполагает интеграцию всей цепочки, от выращивания хлопка до производства готовой одежды, в единую систему.

Ключевые слова: свободные экономические зоны, текстильное производство, инвестиции, экспорт, производственный кластер, Узбекистан.

ANALYSIS OF THE STATE OF THE SYSTEM OF ORGANIZATION OF TEXTILE PRODUCTION IN FREE ECONOMIC ZONES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article systematically analyzes the current state of the textile production system within the free economic zones (FEZs) of the Republic of Uzbekistan. The purpose of the study is to determine the expansion of the textile industry through free economic zones, investment attraction, export potential, and the efficiency of production and added value creation. The cluster approach is gaining strategic importance in organizing textile production in FEZs of Uzbekistan. The clustering principle usually involves integrating the entire chain, from cotton cultivation to the production of ready-made clothing, into a single system.

Keywords: free economic zones, textile production, investments, export, production cluster, Uzbekistan.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti jadal islohotlar, diversifikatsiya va tashqi investitsiyalarni jalb etish yo‘lida sezilarli o‘zgarishlar boshidan o‘tkazmoqda¹. Xususan, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) — mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish mexanizmi sifatida e’tirof etilib, ular orqali yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadlari belgilangan².

EIZlar to‘g‘risida qabul qilingan farmonlar O‘zbekiston hududlarida sanoatning modernizatsiyasi va yangi ishlab chiqarish yo‘nalishlarini rag‘batlantirish uchun huquqiy asos yaratdi. Xususan, “Navoiy”, “Jizzax”, “Angren”, “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” kabi EIZlar tashkil etilib, ularning faoliyati orqali iqtisodiyotni chuqur qayta ishlash, xomashyoni mahalliy resurslardan yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotga aylantirish hamda eksport hajmini kengaytirish yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston Respublikasida Erkin Iqtisodiy Zonalarni (EIZ) joriy etish iqtisodiy islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning asosiy maqsadi xususiyl, shu jumladan xorijiy, sarmoyalarni faol jalb etish, yuqori texnologiyali va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va hududlarni barqaror rivojlantirishdan iborat. Bu zonalar to‘qimachilik va kiyim-kechak sanoati uchun

¹ “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.10.2016.

² Habibjonov U. S. Analysis of Free Economic Zones in Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies, 2024.

maxsus imtiyozlar va qulay shart-sharoitlar yaratish orqali mamlakatning paxtani chuqur qayta ishlash strategiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Quyida O'zbekistondagi EIZlarda to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etish tizimining holati tahlil qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Erkin Iqtisodiy Zonalari ishtirokchilari, xususan, to'qimachilik korxonalari uchun yaratilgan keng qamrovli imtiyozlar tizimi sohaga sarmoya kiritishning asosiy turtkisi bo'lmoqda. Bu imtiyozlar, asosan, soliq va bojxona sohalarini qamrab oladi va ular investitsiya hajmiga bog'liq holda 3 yildan 10 yilgacha muddatga taqdim etiladi.

Soliq imtiyozlari: EIZ ishtirokchilari, odatda, er, mol-mulk, daromad (ayrim istisnolardan tashqari), shuningdek, yuridik shaxslardan olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) (ayrim holatlarda) bo'yicha belgilangan muddat davomida to'lashdan ozod qilinadi. Bu, ayniqsa, dastlabki bosqichlarda ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga, mablag'larni modernizatsiya va kengaytirishga yo'naltirishga imkon beradi. To'qimachilik korxonalari uchun bu, ayniqsa, paxta tolasi va yarim tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar (tayyor kiyim-kechak, trikotaj, maxsus matolar) ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bojxona preferensiyalari: Import qilinadigan, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kelinayotgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, xomashyo va materiallar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi. Bu shart EIZda faoliyat yurituvchi to'qimachilik korxonalariga eng zamonaviy, energiya tejamkor va avtomatlashtirilgan uskunalarini (masalan, to'quv stanoklari, bo'yash, pardozlash va kiyim tikish uskunalarini) xarajatlarsiz olib kelish imkonini beradi. Natijada, korxonalar xalqaro standartlarga mos ravishda sifatli mahsulot ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'ladi.

Ma'muriy yengilliklar: EIZlarda "yagona darcha" tamoyili orqali ro'yxatdan o'tish, ruxsatnomalar olish va boshqa ma'muriy tartib-qoidalarini tezlashtirish joriy etilgan. Bu esa byurokratik to'siqlarni minimallashtirishga va sarmoyaviy loyihalarni tezroq amalga oshirishga ko'maklashadi. To'qimachilik loyihalari o'zining murakkab texnologik jarayonlari bilan ajralib turadi va ma'muriy soddalashtirish ularning ishga tushirish muddatlarini qisqartirishda muhim ahamiyatga ega.

To'qimachilik sohasida esa korxonalar global yetakchi brendlar bilan hamkorlik qilib, yuqori sifatli tovarlarni Yevropa bozorlariga chiqarish imkoniga ega bo'lmoqda. Masalan, Namangan erkin iqtisodiy zonasida joylashgan "Iftixor Kiyim Sanoat" loyihasi bir qancha mashhur dizayn brendlari buyurtmalarini ishlab chiqaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlar tahlili

Akademik tadqiqotlarda erkin iqtisodiy zonalar mamlakat iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shuvchi mexanizm sifatida ko'riladi. Xususan, EIZlar investitsion muhitni yaxshilash, soliq va bojxona imtiyozlarini taqdim etish orqali investorlarni jalb etadi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratadi va eksport salohiyatini oshiradi³.

To'qimachilik sanoati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar mamlakatning o'z xomashyosi — paxta yetishtirish bo'yicha yetakchi o'rinni egallashi natijasida yuqori darajada chuqur qayta ishlashga o'tishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston to'qimachilik sanoati eksportining strukturasida ip va tayyor tekstil mahsulotlari katta ulushga ega bo'lib, ularning eksporti milliy eksport daromadining muhim qismini tashkil etadi.

Namangan viloyati misolida olib borilgan klaster tahlillari shuni ko'rsatadiki, textile klasterlar mashina-uskunalar, eksport imkoniyatlari va geo-iqtisodiy afzalliklar asosida yanada samaraliroq bo'lishi mumkin.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi yondashuvlarni o'z ichiga oladi:

Hujjatli tahlil — EIZlar to'g'risidagi qonunlar, hukumat farmonlari, statistik ma'lumotlar bazasi va tegishli normativ hujjatlar o'rganildi.

Statistik tahlil — to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, eksport va ishlab chiqarish samaradorligiga oid statistik ko'rsatkichlar solishtirildi.

Taqqoslash usuli — EIZlar hududlaridagi ishlab chiqarish samaradorligi va an'anaviy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi solishtirildi.

Jadval ko'rinishidagi tahlil orqali asosiy ko'rsatkichlar tizimli yoritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Quyida EIZlar doirasida to'qimachilik ishlab chiqarishining muhim ko'rsatkichlari jamlangan jadval keltiriladi.

1-Jadval. O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari (2024)

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymati	123.3 trillion so'm	2024 yilda umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha
Export hajmi	\$2.87 mlrd	To'qimachilik eksporti umumiy ko'rsatkichlari
Ip eksporti ulushi	43.2%	Eksport tuzilmasi

³ State Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, Textile export data 2024.

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Tayyor tekstil mahsulotlari ulushi	39.2%	Eksport tuzilmasi

Tahlil: Mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'sish tendensiyasini saqlab turganiga qaramay, eksport qiymatida ma'lum pasayish kuzatilgan. Namangan EIZ hududidagi klasterlar eksportning yuqori salohiyatiga ega bo'lib, xalqaro brendlar bilan ishlash orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

2-Jadval. EIZlar orqali investitsiyalar va ishchi o'rinlari (taxminiy)

EIZ nomi	Investitsiya hajmi (USD mln)	Ishchi o'rinlar (taxminan)
Namangan (to'qimachilik klasteri)	198	Yuqori eksport yo'nalishida
Umumiy EIZ loyihalari	486	4600+ jami barcha EIZlar bo'yicha

Tahlil: Erkin iqtisodiy zonalarda amalga oshirilayotgan loyihalar yuqori miqdorda investitsiyani jalb qilmoqda. To'qimachilik yo'nalishi, ayniqsa Namangan hududida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, bu esa yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekiston EIZlarida to'qimachilik ishlab chiqarishini tashkil etishda klaster yondashuvi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Klasterlash tamoyili, odatda, paxta yetishtirishdan tortib to tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq zanjirni bitta tizimga birlashtirishni nazarda tutadi.

Vertikal integratsiya: EIZlarda tashkil etilgan to'qimachilik klasterlari paxtani yig'ish, dastlabki qayta ishlash, ip-kalava, mato, bo'yoqchilik, pardozlash va nihoyat, tayyor kiyim-kechak eksportini o'z ichiga olgan to'liq siklni qamrab olishi mumkin. Bu vertikal integratsiya xomashyo sifatini nazorat qilishni yaxshilash, logistika xarajatlarini optimallashtirish va ishlab chiqarishning umumiy samaradorligini oshirish imkonini beradi. EIZlar ushbu integratsiyalashgan loyihalarga yirik sarmoyalarni jalb qilish uchun qulay platforma bo'lib xizmat qiladi. Klasterlarning EIZlarda joylashishi ularga soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalangan holda xalqaro raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga yordam beradi.

Eksport salohiyatini oshirish: Klasterlar, asosan, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor qaratadi. EIZ imtiyozlari ishlab chiqarish tannarxini pasaytirgan holda, korxonalarga xalqaro bozorlarda (masalan, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, Turkiya) raqobatbardosh narxlarni taklif qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, EIZlar orqali jalb qilingan xorijiy sarmoyadorlar o'zlari bilan brendlarni, sifat standartlarini (ISO, Oeko-Tex) va barqaror eksport kanallarini olib

keladi. Bu esa O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlarining xalqaro obro‘cini oshirishga xizmat qiladi.

Hududiy rivojlanishga ta‘siri: Klasterlarning EIZlarda joylashtirilishi hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda markaziy o‘rin tutadi. Bunday yirik ishlab chiqarish majmualari yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratadi, ayniqsa, ayollar bandligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, klasterlar infratuzilmani (elektr, gaz, suv ta‘minoti, yo‘llar) rivojlantirishga majbur qiladi va bu EIZga tutash hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

EIZlarda to‘qimachilik sohasini rivojlantirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilganiga qaramay, tizimni barqarorlashtirish va yanada samaraliroq qilish uchun hal etilishi lozim bo‘lgan bir qator muammolar va xatarlar mavjud.

Infratuzilma va resurslar ta‘minotidagi cheklovlar: Ayrim EIZlar, ayniqsa, yangi tashkil etilganlarida, elektr energiyasi, tabiiy gaz va sanoat suvi ta‘minoti bo‘yicha cheklovlar saqlanib qolmoqda. To‘qimachilik ishlab chiqarishi yuqori energiya va suv iste‘moli bilan ajralib turadi, shuning uchun ushbu resurslarning barqaror va uzluksiz ta‘minlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Loyihalarni ishga tushirish kechikishlariga yoki korxonalarning to‘liq quvvatda ishlashiga to‘sqinlik qiluvchi ushbu muammolarni bartaraf etish uchun EIZlarning muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasiga qo‘shimcha yirik davlat sarmoyalari talab etiladi.

Malakali kadrlar yetishmovchiligi va xalqaro tajriba: Sanoatning jadal modernizatsiyasi va yuqori texnologiyali uskunalar joriy etilishi muhandislar, texnologlar va malakali tikuvchilar kabi tor mutaxassislarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. EIZlar chet el tajribasini olib kirishni rag‘batlantirsa-da, mahalliy ishchi kuchini xalqaro standartlarga mos ravishda qayta tayyorlash tizimi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Kasb-hunar kollejlari va texnik universitetlarni EIZlardagi ishlab chiqarish korxonalari bilan bevosita integratsiya qilish orqali amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim dasturlarini kuchaytirish zarur.

Raqobatbardoshlik va barqarorlikni oshirish istiqbollari: Kelajakda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati "yashil iqtisodiyot" va barqaror ishlab chiqarish talablariga moslashishi kerak. EIZlar yordamida nafaqat mahsulot hajmini, balki uning sifatini, innovatsionligini (masalan, texnik matolar, sintetik tolalar) va ekologik tozaligini ham oshirish talab etiladi. Bozorga kirishning asosiy sharti bo‘lgan xalqaro ekologik sertifikatlarni (masalan, GOTS, Oeko-Tex) olishni rag‘batlantirish tizimini mustahkamlash lozim. EIZlar bu o‘zgarishlarga moslashish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etuvchi loyihalarga yanada ko‘proq imtiyozlar berishi lozim. Shuningdek, EIZlarda erkin savdo shartnomalari va GSP+ (umumlashtirilgan preferensiyalar tizimi) imtiyozlaridan samarali foydalanishni ta‘minlash uchun ilg‘or xorijiy boshqaruv tajribasini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalar doirasida to‘qimachilik ishlab chiqarish tizimi holatini chuqur tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

EIZlar investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay mexanizm bo‘lib xizmat qilmoqda. Farmonlar va huquqiy me‘yorlar EIZlarni raqobatbardosh hududlarga aylantirgan.

To‘qimachilik sektori eksport salohiyatini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Xususan, Namangan EIZsi xalqaro brendlar bilan hamkorlik orqali eksport yo‘nalishlarini kengaytirmoqda.

Ishlab chiqarish hajmi va eksport ko‘rsatkichlari mustahkamlandirilmoqda, biroq eksport ma’lumotlarida ba’zi o‘zgarishlar kuzatilmoqda, bu esa uzoq muddatli eksport strategiyasini rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi.

Ishchi o‘rinlar yaratish va qo‘shimcha qiymatni oshirish bo‘yicha salohiyat mavjud, EIZlar hududlarida klaster tizimi orqali bu maqsadlar samarali amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, samaradorlikni yanada oshirish uchun innovatsiyalarni joriy etish, bandlik strategiyalarini kengaytirish hamda xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Habibjonov U. S. Analysis of Free Economic Zones in Uzbekistan. Economics and Innovative Technologies, 2024.
2. “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.10.2016.
3. Namangan viloyati to‘qimachilik tarmog‘idagi klasterlarni rivojlantirish tahlili, ilmiy maqola, 2025.
4. State Statistics Agency of the Republic of Uzbekistan, Textile export data 2024.